



## MILLIY GVARDIYA QO'RIQLASH XIZMATI TOMONIDAN HUQUQBUZARLIKLAR BARVAQT PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH YO'NALISHLARI

Adashov Hojiboy Xusan o'g'li  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi  
universiteti magistranti

**Annotatsiya:** maqolada huquqbazarliklar barvaqt profilaktikasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va yo'nalishlari, ularni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** profilaktika inspektori, fuqaro, huquqbazarlik, xavfsizlik, profilaktika.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida tizimli va samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi, shuningdek, mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" oljanob g'oyasi asosida tubdan qayta ko'rib chiqildi. O'zbekiston Respublikasida huquqbazarliklar profilaktikasi sohasiga keng qamrovli islohatlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllantirildi. Huquqbazarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Qo'riqlash bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tarkibiga berilgan va ularning doimiy joylashtirilgan joyi o'zgartirishsiz qoldirilgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining shtatlari hisobidan qo'riqlash faoliyatini tashkil etilishiga shaxsan javob beradigan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining o'rinosari Qo'riqlash bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimi kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati bo'linmalari faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:



- davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlashni tashkillashtirish hamda ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirish;
- davlat qo‘riqlash tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish, qo‘riqlash bo‘linmalarida nazorat tekshiruvlarini o‘tkazish, idoraviy qo‘riqlash bo‘linmalari obektlarida ichki va ruxsat berish rejimiga rioya etilishiga doir ishlarni nazorat qilish hamda muvofiqlashtirish;
- qo‘riqlanayotgan obektlarda ichki, ruxsat berish rejimlari va mol-mulk qo‘rig‘ini, huquqbarliklarni oldini olish va bartaraf etilishini ta‘minlash;
- jamoat tartibini saqlash va ta‘minlashga ko‘maklashish, qo‘riqlanadigan obektlarda huquqbarliklarni oldini olish;
- qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etish, qo‘riqlash vositalari va tizimlarini qo‘llash sohasida yagona texnik siyosatni ta‘minlash, ulardan foydalanish ustidan samarali nazoratni amalga oshirish;
- aholining Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmatlaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan axborot-tushuntirish mazmunidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- qo‘riqlash xizmati bo‘linmalarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tashkillashtirish;
- qo‘riqlash xizmati bo‘linmalarining tashkiliy-shtat va kadrlar bilan ishlashni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari o‘z vakolati doirasida davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini shartnomaga asosida qo‘riqlashni tashkil etish hamda qo‘riqlash faoliyati bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek davlat qo‘riqlash tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni ta‘minlashga doir Milliy gvardiyaning vazifalarini amalga oshiradigan vakolatli organ bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bo‘linmalarida xizmat ko‘rsatishning eng taraqqiy etgan, iqtisodiy jihatdan qulay shakllari



yuzaga keldi va hayotga joriy etildi. Yanada tezkor, harakatchan, obyekt va xonadonlar qo‘rig‘i, xavfsizligi, mudofaasini ta’minlash borasida o‘z oldiga qo‘yilgan tezkor vazifalarni to‘liq bajara oladigan bo‘linmalar shakllantirildi. Faoliyatga ilg‘or, zamonaviy signalizatsiya va texnika vositalari joriy etib borilmoqda.

Bulardan ko‘zlangan maqsad yagona – davlat va xalq boyligi, fuqarolarning mulklarini jinoiy tajovuzlardan ishonchli himoyalash, ularning to‘liq xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi.

Qo‘riqlash xizmati - O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlar, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini shartnoma asosida qo‘riqlashni tashkil etuvchi yuridik shaxs hisoblanuvchi tarkibiy bo‘linmalari tizimi hisoblanadi.

Quyidagilar qo‘riqlash xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- shartnoma asosida davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalari obyektlarini qo‘riqlash;
- qo‘riqlanayotgan obyektlarda ichki, ruxsat berish rejimlarini hamda jamoat tartibini ta’minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va bartaraf etish;
- qo‘riqlash vositalari va tizimlarini qo‘llash sohasida yagona texnik siyosatni va ulardan foydalanish ustidan samarali nazoratni ta’minlash, shuningdek, qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish;
- shartnoma asosida texnik qo‘riqlash vositalarini o‘rnatish (sozlash), ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ekspluatatsiya qilish;
- davlat tashkilotlari, shuningdek, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli qo‘riqlash bo‘linmalarida nazorat tekshiruvlarini o‘tkazish (huquq-tartibot organlari va harbiylashtirilgan tuzilmalardan tashqari), obyektlarda ichki, ruxsat berish rejimlariga rioya etilishiga doir tadbirlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish;



- ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish, aholi gavjum joylarda jamoat tartibini saqlashda huquq-tartibot organlariga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari qo'riqlanadigan ob'ektlarda huquqbazarliklarni oldini olish hamda jamoat tartibini saqlash vazifasini amalga oshiradilar.O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qo'riqlash bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalarining huquq va burchlari bo'yicha huquqiy voris hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tarkibiga berilgan qo'riqlash xizmati bo'linmalarining xodimlari – Milliy gvardiyaning xodimlari hisoblanib, huquqiy maqomi bo'yicha ichki ishlar organlari xodimlariga tenglashtiriladi, amaldagi qonun hujjalarda belgilangan barcha imtiyozlar saqlanib qolinadi, bepul tibbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tibbiyot muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

### Foydalanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi. [ngoxrana.uz](http://ngoxrana.uz) (internet tarmog'i).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4997-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'risidagi kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2019 yil 15 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati tomonidan obyektlarni qo'riqlashni tashkil etish to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 204-son buyrug'i.